

O'ZBEKISTONDA GEOEKOLOGIK TADQIQOTLARNING OLIB BORILISHI TARIXI (XX ASR MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada XX asrda yuzaga kelgan, ekologik muammolar haqidagi barcha bilimlarni o'zida jamlagan hamda Yerda tabiiy muhit va hayotni saqlashni asosiy maqsad qilib olgan, biologik, geologik va boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanadigan yangi geografik soha geoekologiyani fan sifatida namoyon bo'lishi va rivojlanishi haqida ba'zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Global, Regional, Lokal, Amudaryo, V.V.Dokuchayev, D.N. Anuchin, "Ekologik vaziyat", V.B. Sochava, "Ekologik fojia", "Ekologik tanazzul", "Ekologik xavfsizlik".

ИСТОРИЯ ПРОВЕДЕНИЯ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ (на примере XX века)

Аннотация. В статье приводятся некоторые размышления о проявлении и развитии геоэкологии как науки, новой географической области, возникшей в XX веке, которая объединяет все знания об экологических проблемах и ставит своей основной целью сохранение природной среды и жизни на земле, используя достижения биологических, геологических и других наук.

Ключевые слова: глобальный, региональный, локальный, Амударьинский, В.Аннотация. Вннотаци. В статье приводятся некото.воторые размышления о проявлении и развитии геоэкологий спад", "Экологическая безопасность".

HISTORY OF THE CONDUCT OF GEOECOLOGICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF THE 20TH CENTURY)

Annotation. The article presents some reflections on the manifestation and development of geoecology as a science, a new geographical area that arose in the 20th century, which combines all knowledge about environmental problems and has the main goal of preserving the natural environment and life on Earth, exploiting the achievements of biological, geological and other sciences.

Keywords: Global, Regional, Local, Amudaryo, V.An. Thnnnotation. The article presents somnotatinle presents some reflections on the manifestation and develction", "Ecological security".

Geoekologiya – tabiiy va antropogen o'zgargan geotizimlarning tarkibi, strukturasi, maxsus faoliyatining qonuniyatlari va evolyutsiyasini o'rganuvchi fan. U Yerning ekologik muammolari haqidagi barcha bilimlarni jamlaydi hamda Yerda tabiiy muhit va hayotni saqlashni asosiy maqsad qilib oladigan, biologik, geologik va boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanadigan geografik fan sifatida namoyon bo'ladi.

Geografiya va ekologiya fanlari geoekologiyani nazariy asosi sifatida Geoekologiyani shakllanishida asos bo'lgan geografiya va ekologiya fanlari so'nggi 150 yil davomida jadal rivojlandi. Bu fanlar zaminida tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ko'pgina g'oyalar, konsepsiyalar, ilmiy yo'nalishlar dunyoga keldi. Geoekologiya bu jihatdan bir qancha ta'limotlar: biosfera haqidagi (Vernadskiy, 1926), geografik qobiq haqidagi (Grigorev, 1932), biogeotsenoz haqidagi (Sukachev, 1941), landshaft haqidagi (Solnsev, 1943), noosfera haqidagi (Vernadskiy, 1944), geosistemalar haqidagi (Sochava, 1963) va boshqa ta'limotlarga

38 hamda bir nechta konsepsiyalar: biotsenozlar (Myobius, 1877), ekosistemalar (Tensli, 1935), geotextizimlar (Preobrajenskiy, Reteyum, Dyakonov, Kunitsin, 1972) va boshqalarga tayanadi. Geografiya geoekologiyaga kompleks yondashuv, tabiatdagi mavjud o'zaro bog'liqliklar, geokomponentlarning butun geografik qobiq rivojlanishidagi o'rni va ularning jamiyatni barqaror rivojlanishi uchun resurs ahamiyati, geotizimlarning tabaqalanishi, barqarorligi va boshqa tushunchalarni berdi[1, C.43-44].

Bu davrda V.V.Dokuchayev, D.N. Anuchin va ularning shogirdlari "landshaftshunoslik" fani singari geoekologiyaga ham asos soldilar. Chunki ularning ishlarida tabiatga bir butun tizim sifatida qarash, tabiatdan foydalanishda ularning hududiy farqlaridan kelib chiqib, ya'ni zonal-regional darajada o'rganish lozimligi aytiladi. Shuning uchun ularning landschaftshunoslik maktabi keyinchalik geografik-ekologik fan sifatida rivojlandi.

Geoekologiya geotizimlarni, bir tomondan, insonning yashash muhiti, ikkinchi tomondan esa, uning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining muhiti sifatida o'rganadigan geografik fan bo'lib shakllanganini V.B.Sochava, A.G.Isachenko, M.D.Grodzinskiy, A.A.Chibilyev, B.A.Kochurov, A.A.Rafiqov va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin[2, C.64-65].

XX asrning 50-yillaridan boshlab respublikamizda L.N.Babushkin va N.A.Kogaylar tomonidan landschaftlarni o'rganish va qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan baholash ishlari bajarilgan. Keyinchalik ularning ishlari landschaft-ekologik yo'nalishda rivojlandi. Bu haqda Sh.S.Zokirov (1999) to'xtalib, —D.N.Kashkarov, E.P.Korovin, T.Z.Zohidov, V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning ilmiy yo'nalishlari geografik-ekologik yo'nalish ekanligini ta'kidlaydi[4, C.64-65].

Dolzarb global va regional ekologik muammolarni echish uchun geografik va ekologik bilimlarning integratsiyasi bilan bog'liq tarmoq va kompleks geoekologik tadqiqotlar davri (1960-yillardan 1990-yillargacha). Bu davrda geoekologiyani mazmuni kengaydi. U ko'proq inson xo'jalik faoliyatining abiotik muhit va umuman, atrof muhitga ta'sirining oqibatlarini o'rgana boshladi. Sobiq Ittifoqda, xususan, mamlakatimizda "geoekologiya" terminining qo'llanilishi 1970-yillar boshidan boshlandi. Ayniqsa, geoekologik tadqiqotlar, akademik V.B.Sochava va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan, o'zida landschaftshunoslik, fitotsenologiya va ekologiyani ilmiy yondashuvlarini birlashtiruvchi tadqiqotlarda faol rivojlantirildi. Bunday tadqiqotlar O'zbekistonda ham olib borilib, asosan, professor A.A.Rafiqovning tadqiqotlarida rivojlantirildi va respublikamizda geoekologiyani rivojlanishi aynan uning nomi bilan bog'liq[2, C.156].

Obyektni o'rganishdagi ekologik yo'nalish tabiiy geografiyaga, shuningdek landschaftshunoslikka xuddi sistemali yo'nalish kabi bilishning bir metodologik usuli sifatida kirib keldi. Shu ma'noda Ya.Demek (1977) ning "Ekologik metod bilishning universal metodidir va birgina fan (masalan, biologiya) ning yoki bir guruh fanlarning "mulki" bo'lib qolmay, undan xohlagan tabiiy sistemalarni shu jumladan, geosistemalarni ham tadqiq qilishda foydalanish mumkin" — degani e'tiborga loyiqdir.

Landschaftlarni tadqiq qilishda ekologik yo'nalish ma'lum amaliy masalalarni hal etishda ham ahamiyatlidir. V.B. Sochavani (1978) yozganiga ko'ra, ekologiya keng ma'noda olganda bir filtrki, to'plangan geografik ma'lumotlarni qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi masalalarini echishda foydalanishdan oldin ana shu filtrdan o'tkazib olish kerak bo'ladi. Organizmlar, shu jumladan inson yashaydigan muhit turli ekologik omillar va sharoitlar to'plami bo'libgina qolmay, turli ko'lamdagi va turli katta-kichiklikdagi geosistemalarning murakkab tashkillangan majmuasidir. Binobarin, geosistemalarni tadqiq qilishda ekologiyani tabiiy geografik komplekslarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan organizmlarning tropik aloqadorliklari va biologik metabolizmni tadqiq qilish usullari landschaftshunoslikdagi ekologik yo'nalish samarali ekanligidan darak beradi.

XX asrning boshlariga kelib, geoekologiyani shakllanishida asos bo'lgan geografiya va ekologiya fanlari zaminida tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ko'pgina g'oyalar, konsepsiyalar, ilmiy yo'nalishlar dunyoga keldi. Shuningdek, insonning tabiatga bo'lgan ta'sir ko'lamining ortib borishi tufayli inson va tabiat munosabatlarini

o'rganishda o'zida geografik va ekologik bilimlarni sintezlashtiruvchi ilm sohasining dunyoga kelishi muqarrar bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan geografiya fanida bir qancha ta'limotlar – biosfera haqidagi (Vernadskiy, 1926), geografik qobiq haqidagi (Grigoryev, 1932) hamda bir necha konsepsiyalar (biotsenozlar (Myobius, 1877), ekotizimlar (Tensli, 1935) va h.k.)ga asoslanib, tadqiqotlarning yangicha mazmun kasb etishi natijasida geoekologik yo'nalish shakllandi.

Geoekologiya – geografik qobiq va insoniyatning integratsiyalashuvi haqidagi fanlar tizimi, yoki mazkur integratsiya jarayonidagi o'zaro bog'liq tizim sifatida —yashash qobig'ini tadqiq etuvchi fanlararo ilmiy yo'nalishdir. V.I.Vernadskiy ta'riflagan “hayot pardasi” yoki F.N.Milkov aytgan “landshaft qobig'i” ga mos tushadi.

Geoekologiya o'zaro ekologik munosabatlarning makondagi aloqalarini aniqlashga yo'naltirilgan geografik tadqiqotlarda ekologik metodologiyaning qo'llanishi natijasida shakllandi. Taniqli ekolog olim N.F.Reymersning fikricha, geoekologiya geografik fan bo'lib, muhit (havo, quruqlik, suv) ekologiyasi, tabiiy landshaftlar ekologiyasi va madaniy landshaftlar ekologiyasi kabi tarmoqlarga bo'linishi kerak. O'z tadqiqot obyektni o'rganishda ekologik yo'nalish tajribalari O'zbekistonda yashab, ijod etgan bir qator tabiatshunos olimlar (D.N. Kashkarov, e.P. Korovin, T.Z. Zoxidov, V.M. Chetirkin, L.N. Babushkin va N.A. Kogay) ning ilmiy asarlarida yaqqol seziladi. Ularning ilmiy yo'nalishlari haqiqatan ham ekologik-geografik yo'nalish ekanligi va tan olinganligi hamda shu yo'nalish asosida regional landshaftshunoslik shakllanganligini geograf olim R.U. Rahimbekov (1995) har tomonlama yoritib bergan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nigmatov A.N. Ekologiya nima? Risola. – Toshkent: “Faylasuflar” nashriyoti, 2014 – B.43-44.
2. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent «O'qituvchi» 2002.-B.65-66.
3. Toshov X.R.Tabiiy geografiya: tarixi va ba'zi nazariy masalalari. Monografiya. – “Durdona” nashriyoti. 2021. – B.425.
4. Боровский В.М., Погребинский М.А. древняя дельта Сырдары и Северные Кызылкума-Алма-Ата: Изд-во АН КазССР,1958,-т.т. -516с
5. Исаченко А.Г. Основа ландшафтоведения и физико-географическое районирование.М. :Высш. Школа, 1965. -328с.
6. Мильков Ф.Н. Парагенетические ландшафные комплексы// Научные записки Воронежского отдела ГО СССР-Воронеж: Изд-во Воронежского университета,1966. 751с.
7. Алибеков Л.А. Эколого-географические проблемы Центральной Азии. Самарканд, 2010., 271-341 с.
8. Burigin V.A., Marinkovskaya M.I. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 192 b.
9. Baratov Yu.A., Aliyeva M., Xalilova X., Alixo'jayeva B. Tabiatda va jamiyat taraqqiyotida suvning ahamiyati. // O'zbekistonda atrof-muhitni muxofaza qilishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand 2013., 62-64-b.
10. Бассейны рек Средней Азии. Вып. Бассейн р. Аму-Дарьи / под ред. В. М. Федотовой. — Л.: Гидрометеиздат, 1967. — С. 61.